



## OLIY TA'LIMDA TIL O'QITISH METODIKASI

Kenjayeva Rayhana Muzaffar qizi

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU Ona  
tili va adabiyot ta'lifi fakulteti I bosqich  
magistranti*

*rayhonakenjayeva414@gmail.com*

### Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta'lim sifatni belgilovchi va unga ta'sir qiluvchi omillarning ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan. Oliy ta'limning bakalavriat va magistratura bosqichlarida til o'qitishga yo'naltirilgan fanlar xorij va O'zbekiston oliy o'quv yurtlari misolida tahlilga tortilgan. Ta'linda til o'qitishda ijodiy (kreativ) darajaga erishish usullari, til o'qitishda badiiy-amaliy konsepsiya va o'r ganuvchiga asoslagan metodlarning amaliy ahamiyati xorijda o'qitiladigan fanlar misolida ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** bakalavr, magistr, ta'lim sifati, zamonaviy fanlar: til, ommaviy axborot vositalari va madaniyat, creative writing (ijodiy yozish), sillabus.

Oliy ta'lim tizimida yo'nalishga mos va zarur fanlar tizimini yaratish, shu fanlar uchun munosib o'quv dasturlarini yaratish va darsni samarali rejalshtirish talabalarning muvaffaqiyatli ta'lim natijalariga bir necha jihatdan yordam beradi. Xususan,

- Talabalar va o'qituvchilarga o'quv modulining maqsadlarini tushunishga yordam beradi.
- O'qituvchiga o'quv dasturini o'quv faoliyatiga aylantirish imkonini beradi.
- O'quv materiallarini baholash bilan moslashtiradi.
- Baholashni o'quv maqsadiga moslashtiradi.
- Kerakli o'quv materiallari mavjudligini ta'minlashga yordam beradi.



- O‘qituvchiga o‘quvchilarning individual ta’lim ehtiyojlarini puxta o‘ylash imkonini beradi<sup>56</sup>.

Dunyo tajribasida oliy ta’limning Til va adabiyoti bakalavriat dasturining ikkita asosiy maqsadi bor.

1. Talabalarga umumiy va sohaga oid asosiy ko‘nikmalarni berish: bilimlarni egallash va ulardan foydalanish; axborotni talqin qila olish; baholay olish; tahlil qilish va sintez qilish qobiliyati; mustaqil ishlash qobiliyati, individual mas’uliyat, ijtimoiy mas’uliyat, rejalshtirish va boshqarish, tanqidiy fikrlash, ma’lumotni aniqlash, takrorlash va boshqalarga uzatish qobiliyati; qaror qabul qilishni amaliyatga aylantirish, samaradorlik; ijtimoiy va ilmiy axloqiy qadriyatlarga hurmat; axborot tizimlari, texnologiyalar, kompyuterlar va dasturiy ta’milot, texnik vositalardan foydalana olish; atrof-muhitni muhofaza qilish, atrof-muhitga hurmatni anglash; kamida bitta chet tilidan foydalana olish; oqilona fikrlash va nihoyat samarali muloqot qilish.

2. Til va adabiyot fanidan tadqiqot olib borish uchun kadrlar; talabalar umrbod ta’lim olishga e’tibor qaratishadi; adabiy tushunchalar, harakatlar, nazariyalar va matnlarni tushuntira oladigan va tahlil qila oladigan shaxslar; tilni to‘g‘ri, chiroyli va samarali ishlatishda yetakchilik qila oladigan shaxslar; kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga hissa qo‘sadigan shaxslar; badiiy did va sezgirlikni singdira oladigan va rivojlantira oladigan shaxslar; asosiy til ko‘nikmalarini rivojlantirishga qodir shaxslar; tanqidiy va ijodiy fikrlash, qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantira oladigan shaxslarni va nihoyat samarali muloqot qobiliyatlariga ega shaxslarni tayyorlash<sup>57</sup>.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda talabalarga o‘zлari tanlagan yo‘nalishda chuqr ta’lim olishlari uchun zarur bo‘lgan majburiy va tanlov fanlarni ularning ahamiyati va shaxsnинг kasbiy ehtiyoji nuqtayi nazardan kelib chiqib o‘qitilmoqda. Tanlangan fanlardan maqsad esa talabani faqatgina tilni to‘g‘ri, chiroyli va samarali ishlatishda yetakchilik qila oladigan shaxs qilib tarbiyalash emas, balki tilni o‘qitish orqali turli sohalar uchun yuqori

<sup>56</sup> <https://counseling.education.wm.edu/blog/the-importance-of-lesson-planning-for-student-success>

<sup>57</sup> <http://abp.anadolu.edu.tr/tr/program/programProfilii/1677/8>



kompetensiyani shakllantirishdir. Ta’limi rivojlangan davlatlarda bugungi kunda oliy ta’limning bakalavriat bosqichining til va adabiyot fakulteti talabalariga quyidagi fanlar tanlangan:

T/r	Rossiya	Turkiya	O‘zbekiston
1.	Ritorika	<u>Yozma va og‘zaki ifoda I-II</u>	<i>O‘qituvchining nutq madaniyati</i>
2.	Turli davrlar tili.	<u>Turk tilining dolzarb muammolari</u>	<i>Nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish asoslari</i>
	<u>Geografiya nazariyasi va amaliyoti.</u>	<u>Kopirayterlik</u> (Copy writer)	Darsliklardan foydalanish metodikasi
4.	Semantika asoslari	<u>Asosiy axborot texnologiyalari</u>	Til o‘qitishga oid ilmiy tadqiqot asoslari
5.	Matnni tahlil qilish	Adabiy matnlar sharhi	Til ta’limiga psixoligistik yondashuv
6.	Tilshunoslik.	<u>Tahririyat</u>	Xalqaro baholash asoslari
7.	Adabiyot nazariyasi. <sup>58</sup>	<u>Germenivtika</u> <sup>59</sup>	Til ta’limida topshiriqlar yaratish metodikasi

Amerikaning mashhur universitetlarida esa bugun til o‘qitishda nazariyadan amaliyotga boshlovchi fanlar talabalar tomonidan yuksak baholanmoqda. Ushbu fanlar antroposentrik yondashuv asosida yaratilgan. Til insonda, inson esa tilda tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv ta’limni inson omili bilan bog‘lab o‘rgatadigan individuallik, insonparvarlik, foydalilik, o‘z-o‘zini namoyon etishga asoslanadi<sup>60</sup>. Talabalar tilni amaliyotda tadqiq qilishadi va

<sup>58</sup> <http://edu.tltsu.ru/sites/site.php?s=1578&m=14686>

<sup>59</sup> <https://kmu.edu.tr/edebiyat/bilgi/988/turk-dili-ve-edebiyati-bolumu-ders-icerikleri>

<sup>60</sup> M.Sobirova. DSc aftoref. Ona tili darlarida antroposentrik yondashuvning ilmiy - metodik asoslari va texnologiyalari. Namangan:2023 15 b



o‘rganishadi, xatolar qilishadi, motivatsiya asosida yaxshi natijalarga erishishadi. Quyida ulardan ba’zilarini ko‘rib o‘tamiz.

## • SUBJECT: LANGUAGE, MEDIA AND CULTURE(INGLIZ TILI, OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA MADANIYATI)

- (Worcester universiteti )
- Kurs kim uchun mo‘ljallangan: *Bakalavr* bosqichi talabalari uchun

**Nima uchun:** Media va madaniyat kurslari bitiruvchilari marketing va jamoatchilik bilan aloqalar, nashriyot, ommaviy axborot vositalari va jurnalistika, biznes va sanoat, xayriya tashkilotlari va davlat boshqaruvi kabi kommunikativ ko‘nikmalar markaziy bo‘lgan turli martabalarda ishlaydi. Qolaversa, qanday qilib muloqot qilishni tushunish juda muhim bo‘lgan “media jamiyatida” veb-saytlarni loyihalash, reklama va matbuot materiallarini yozish bilan shug‘ullanadilar va media-treningni olib borish, jamoatchilik bilan aloqalar, tadbirlarni boshqarish, o‘qitish, biznes va davlat sektorlarida ham faoliyat yurita oladilar.

### Dasturning maqsadi

- Kurs oxirida talabalar nimaga ega bo‘ladi:
  - Ingliz tili va ommaviy axborot vositalari va madaniyati bo‘yicha zamonaviy muloqot, zamonaviy jamiyat va madaniyat haqida tanqidiy va intellektual fikrlash ko‘nikmasi;
  - Worcesterda ingliz tilini o‘rganish sizga til dunyoni qanday shakllantirishini, fikrlarni jonlantirishini, lingvistik va stilistik tanlovlар orqali shaxsiyatimizni shakllantirishini ko‘rish imkonini beradi.

Fan 4 yil davomida o‘qitiladi. Dasturga kiritilgan:

“*Tilni bilish*”, “*Ommaviy axborot vositalari va madaniyatni o‘rganish*”, “*Ijtimoiy lingvistik nazariya va amaliyot*”, “*Raqamli madaniyatlar*” (*Raqamli savodxonlik– raqamli axborot vositalari bilan ishlash, axborotni qidirish va qayta ishlash uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmalar to‘plami* <sup>61</sup>), “*Kengaytirilgan til tahlili*” mavzularida ishtirok etish majburiy<sup>62</sup>.

<sup>61</sup> Almaniyiyavova S. Alniyazov D. Raqamlashtirish sharoitida raqamli savodxonlikni oshirishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022.

<sup>62</sup> <https://www.worcester.ac.uk/courses/english-language-and-media-culture-ba-hons>



Bakalavr bosqichida ushbu fanni chuqur o'zlashtirish bilan talaba quruq nazariy bilimlar bilan cheklangan talabadan tajriba asosida o'rgangan, malakaga ega bo'lgan mutaxassisiga aylanadi.

Bugungi kunda dunyo ta'lif tizimida oliy ta'lifning magistratura bosqichi talabalariga 1 ta majburiy fan (Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi) va 2, uzog'i bilan 3 ta tanlov fan (talaba ilmiy ishi va xohishi asosida) o'qitiladi. Quyida tanlov fanlardan birini til o'qitish metodikasi nuqtayi nazaridan tahlil qilamiz.

## SUBJECT: CREATIVE WRITING (Ijodiy yozish)

(Cambridge universiteti )

**Kurs kim uchun mo'ljallangan:** *Magistratura* bosqichi talabalabari uchun.

### Nima uchun:

Talabalarni yozuvchi sifatida shaxsiy ijodiy rivojlanishi;  
Ularning kasbiy faoliyati ushbu sohalarga bo'g'liqligi;  
Ijodiy amaliyotni osonlashtirish uchun.

### Dasturning maqsadi:

Kurs oxirida talabalar nimaga ega bo'ladi:

- 1) badiiy va badiiy bo'lmagan janrlarda yozish va tahlil qilish qobiliyatları shakllanadi;
- 2) badiiy va badiiy adabiyot tarixi(innovatsion ishlanmalar nuqtai nazaridan)tanqidiy, tahliliy va hikoya qilish nazariyasi haqida mustahkam va asosli tushunchalar hosil bo'ladi.

### Fan 2 yil davomida o'qitiladi

**1-yil** (Talabalar tuli notanish hududlarni o'rganib, turli janrlar bilan shug'llanadilar va tajriba o'tkazadilar.Dars 4 modulda amalga oshiriladi:

**1-Modul:** Talabalar she'riyat va avtobiografik nasrning tanlangan namunalarini sinchkovlik bilan tanqidiy o'qib, tahlilini yozishadi.

**2-modul:** Nasriy fantastikaga e'tibor qaratiladi.Talabalar xotira, tasavvur va tadqiqot o'rtasidagi munosabatni o'rganadi va fantastikada yozuvchining mahorati, jumladan, syujet va asar, ovoz va xarakter, shuningdek joy va vaziyatning ahamiyatini tahlil qiladi. (*O'qib tushunish*)

### 3-modul: Ishlash uchun yozish: Monolog va polifonik skriptlar



Talabalar radio, teatr, televideniya va kino uchun yozishni va senariylashtirilgan og‘zaki nutq va ijroning boshqa shakllarini o‘z ichiga olgan auditoriya uchun yozishning turli shakllarini o‘rganadilar va faoliyat biln shug‘ullanadilar. (*Tinglab tushunish, og‘zaki nutq*)

**4- modul: Yozuv hayoti.** Talabalar bir qator kichik janrdan misollarni ko‘rib chiqadi (badiiy, publitsistik, ilmiy ommabop matnlar, hikoya, novella, she’rlar, kichik nasriy janrlar) ularga tahlil va sharh yozadilar. tarjimayi hol, xotiralar, sayohatlar va atrof-muhit haqida yozish kiradi. (*Yozma nutq*)

**2-yil :** Talaba o‘zi tanlagan yo‘nalish bo‘yicha adabiy va tanqidiy ko‘nikmalarini mustaqil rivojlantiradilar va tanlangan ilmiy rahbar bilan ishlaydilar.

**Talabalar darslarning barchasida ishtirok etishlari majburiy, aks holda kursni to‘la o‘zlashtira olmaydilar.**

Fanning maqsadi, mavzularidan kelib chiqib aytish mumkinki, O‘zbekistonda ham oliy ta’lim tizimida shunday fanlarni kiritish ta’lim sifatining oshishiga, bevosita bugun talabalar nazariyalarini o‘rganayotgan “Badiiy amaliy konsepsiya” , “O‘rganuvchiga asoslangan yondashuv” va bir qancha zamonaviy metodlarning amaliy ahamiyatini qandayligining guvohi bo‘ladilar. Ushbu fanlarni o‘qitish bilan shaxs faoliyatining kemtik nuqtalarining:

- ❖ dogmatik fikrash;
- ❖ ko‘chirmachilik;
- ❖ fikriy og‘ish;
- ❖ tor dunyoqarash;
- ❖ fikrsizlik (muayyan mavzuda fikrga ega bo‘lmashlik)

ildizini quritishimiz mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Almaniyiyavova S. Alniyazov D. Raqamlashtirish sharoitida raqamli savodxonlikni oshirishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022.
2. M.Sobirova. aftoref. Ona tili darlarida antroposentrik yondashuvning ilmiy –metodik asoslari va texnologiyalari.Fan doktori ( DSc) diss. aftorefarati. –Namangan, 2023.



## Internet saytları

1. <https://counseling.education.wm.edu/blog/the-importance-of-lesson-planning-for-student-success>
2. <http://abp.anadolu.edu.tr/tr/program/programProfili/1677/8>
3. <http://edu.tltsu.ru/sites/site.php?s=1578&m=14686>
4. <https://kmu.edu.tr/edebiyat/bilgi/988/turk-dili-ve-edebiyati-bolumu-ders-icerikleri>
5. <https://www.worcester.ac.uk/courses/english-language-and-media-culture-ba-hons>

